

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
DEKABR
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 34 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1 Ikromova Muhayyo Ismoilovna NOZIK TA'B SHOIRNING NOZIK KECHINMALARI	7
2. Oqbutayeva Shaxnoza Oydinovna NAVOIY MEROSI-- MILLIY-MA'NAVIY XAZINA	9
3. Safarova Ruqiya Abduvali qizi ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINING FANLARARO INTEGRATSIYALASHUVI.....	11
4. Allaberganova Zebiniso Boltayevna DARSLARDA KO'RGAZMALILIKNING AHAMIYATI VA KO'RGAZMALARDAN FOYDALANISH METODIKASI	13
5. Axmedova Gulnoz Isomurodovna ANVAR OBIDJON ASARLARI YOSH AVLODNI UMUMISONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIALSHGA XIZMAT QILADI	15
6. Bozorova Xurshida Fatulloyevna, Tolibova Zulayho Dilmurodovna ALISHER NAVOIY: YOR ILA BIR XILVAT ISTARMENKIM.....	17
7. Haydarova Nargiza Mutalibovna ABDULLA AVLONIYNING TA'LIM-TARBIYA SOHASIDAGI QARASHLARI	19
8. Jumaniyozova Xursandoy Marks qizi, Sobirova Dilrabo Rajabbayevna NAVOIYNING ILMIY MEROSINI O'RGANISH.....	21
9. Qo'ldosheva Mohichehra Rahmonqulovna FARID USMON SHE'RIYATI BOLALAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MUHIM O'RIN TUTADI.....	22
10. Ravshanov Toshniyoz Tuxtatosh o'g'li “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONI BARKAMOL SHAXS TARBIVASIDA— DASTURILAMAL	24
11. Kuryazova Xurshida, Boltayeva Iqboloy ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI	26
12. Namozova Dilfuza Isomiddinovna, Kuchimova Gulmera Muxiddinovna JAHON ADABIYOTI. TURGENEVNING “OTALAR VA BOLALAR” ASARI TAHLILI	28
13. Abdusalomova Madinaxon Tohirjon qizi ERKIN VOHIDOV IJODIYOTIDA O'ZBEK TILNING BETAKROR JOZIBASI	29
14. Bozorova Nargiza Sayidovna, Sattorova Dildora Botirboyevna O'QUVCHILAR OG'ZAKI VA YOZMA NUTQIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	32



АДАБИЁТ

NOZIK TA'V SHOIRNING NOZIK KECHINMALARI

Ikromova Muhayyo Ismoilovna,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani

17-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon:+998 93 704 80 84

Annotatsiya: Maqolada buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida yurt sog'inchi g'oyasining ifodaanishi va she'rlari o'zining mazmundorligi, nafosati, badiiy jihatdan g'oyat yuksakligi yoritilgan.

Ka lit so'zlar: Ilmiy, adabiy, meros, taqdir, hasrat, g'azal, ruboiy, vatanidan judolik, shoh, g'animat, umuminsoniy, tengsiz zakovat, mustahkam iroda.

Mumtoz adabiyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur har doim olim-u fozillar davrasida bo'lgan. Xususan, o'zi ham ijod ahliga, kasb-hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rsatib, homiylik qildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turdi. Juda ko'p vaqti jang-u jadallarda o'tgan ulug' sarkardaning shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog'larida ham u ijodiy ishga fursat topa bilgan va ilm, san'at, ijod ahlini o'z atrofiga to'plagan. Chunki Boburning o'zi tabiatan ijodkor shaxs edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha yozishdan to'xtamadi, natijada o'zidan boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Bobur umri bo'yi Vatan sog'inchi bian yashadi, u doimo o'z yurtini qumsadi Deyarli barcha lirik she'rlarida kindik qoni to'kilgan yurtini – Andijonini qo'msash, ona tuprog'iga talpinish, yor-u diyor sog'inchi, visol ilinji ufurib turadi. Uning “Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi” misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysida hamda “Topmadim” radifli g'azalida g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat, taqdir zarbalari va turmush uqubatlaridan nolalar badiiy tahlil qilinadi:

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,

Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

Toj-u taxt tufayli o'z Vatandan judo bo'lgan Bobur lirik she'rlarida Ona yurtiga bo'lgan sog'inchini, qalbidagi g'am-anduhlarini shunday ifodalaydiki, unda Vatanning naqadar muqaddasligi namoyon bo'ladi:

Kabutar, eltasen xattim, ne bo'lg'ay gar qabul etsang,

Ko'ngulni bog'lasam ul noma yanglig' parru bolingg'a.

Yoki:

Qovun birla uzumning hajrida ko'nglumda g'am har su,

Oqar suvning firoqidin ko'zumdin har dam oqar suv.

Shoir vatanidan judolikda, o'zga yurtda shoh bo'lsa-da, bundan dili ozorlanadi, afsus-nadomat chekadi:

O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,

Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Bobur ushbu ruboiysida o'zining o'zga yurtga ketishiga davroni-hukmronligi sabab bo'lganini, o'z yurtidan ayrilganini armon bilan kuylaydi:

Davron meni o'tkardi saru somondin,

Oyirdi meni bir yo'li xonumondin,

Gah boshima toj, gah baloyi ta'na,

Nelarki, boshimg'a kelmadi davrondin.

Inson qisqa umri davomida mehr-oqibatni unutmay, bir-biri bilan diydorlashishi, g'animat lahzalarda chin do'stlarning yig'ilib turishi iste'dodli shoir uchun go'yoki bir farog'atdir:

Ahbob yig'ilmoqni farog'at tutungiz,

Jamiyatingiz borini davlat tutungiz,



Chun gardishi charx budurur tengri uchun,
Bir-birni necha kune g'animat tutungiz.

Buyuk shoirning ulkan san'atkorligi shundaki, o'zining shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma mavqeyiga yetkaza oldi va shu sababli uning bejirim, ravon g'oyalari umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarildi. Zamon uni qonli kurashlar, xiyonat, jinoyat va mag'lubiyat bilan sinadi, ammo Bobur hasratlarini qog'ozga to'kib, tengsiz zakovat, mustahkam iroda sohibi ekanini ko'rsatdi:

Bobur, necha, bu dahr meni zor aylar,
Sabrimni kam-u g'amimni bisyor aylar,
To dahr durur budur aning rasmikim,
Ayrib kishini azizidin xor aylar.

Nozikta'b va dilbar shoirning she'riyati o'zining mazmundorligi, nafosati, badiiy jihatdan g'oyat mukammalligi bilan ajralib turadi. Bobur lirikasiga xos bo'lgan yana bir muhim jihati shuki, unda tarixiy voqealar chambarchas bog'lanib, o'sha davr ijtimoiy sharoiti sodda va ravon tilda mahorat ila ifodalangan.

Buyuk mutafakkir bobomizning o'z avlodlariga juda katta va bebaho meros qoldirdiki, bu meros ma'naviyatimizni boyitishda, ruhimizni poklashda muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Saidbek Hasanov. Zahriddin Muhammad Bobur. Toshkent. "O'zbekiston"-2011.*
2. *Bobur Ensiklopediyasi. Toshkent-2014.*
3. Hoshimov K. Nishonova S Pedagogika tarixi. Darslik –T: O'qituvchi, 2005-yil.
4. www.ziyonet.uz
5. www.tdpu.uz
6. www.pedagog.uz



NAVOIY MEROSI-- MILLIY-MA'NAVIY XAZINA

Oqbutayeva Shaxnoza Oydinova,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
17-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon:+998 93 722 86 10

Annotatsiya: Maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hayotiy xulosalar chiqarib yozgan va kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma'naviy merosining yoshlarni komil inson tarbiyasida muhim o'rin tutishi haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Hayotiy saboq, ibratli voqealar, hikmatli so'zlar, falsafiy mushohadalar, komillik, onaning muqaddasligi, mehnatkash xalq, qoralaydi.

So'z mulkingning sultoni Mir Alisher Navoiy ijodiyoti go'yoki bir sarchashma... Bu sarchashma shunchalik tiniq va musaffoki, undan to'yib ichgan inson ma'rifatga, ma'naviyatga tashnalikdan rohatlanadi. Ulug' shoir dostonlari, g'azal, ruboiy, tuyuq va boshqa lirik she'rlarini mutolaa qilar ekanman, ularning g'oyaviy mazmun-mohiyatidan hayotiy saboq olamiz. Ayniqsa, ulug' shoirning insonlarni ilm-hunarni o'rganish, eng yaxshi insoniy fazilatlarini egallash haqidagi fikr-mulohazalari ibratlidir.

Kishining kishiga mehr-u vafosi, e'tiqodi, diyonati, sadoqati hech qachon so'nmasa. Adolat, haqiqat, vijdon, odamiylik tuyg'ulari barhayot bo'lsa. Navoiy ijodida bu xildagi kechinmalar shunchaki hissiy emotsiya emas, balki yurakning tubidan otilgan da'vat, ong-u tafakkurning qa'ridan to'kilgan chorlov. Chunki shoir komil insonni orzu qiladi. Bu shunday insonki, saxovat va himmatni umrining hosildor mevasi, hilmni, ya'ni muloyimlik tabiatini vujudining qimmatbaho libosi, sabr-u qanoatni esa ko'zining ko'rar nuri deb biladi.

“Mahbub ul-qulub” asarini Navoiy umrining oxirgi yillarida yozgan. Bu kitob adibning oltmish yillik umri davomida hayotda ko'rgan-kechirganlarini, kuzatganlarini teran tahlildan o'tkazib, muayyan xulosalar chiqarib yozgan va kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma'naviy merosidir. Axloqiy-falsafiy yo'sindagi pandnoma. Fikrlari bebaho, hikmatlari betakror, tanbehlari o'rinli, tunganmas xazina, nasihatnoma.

“Mahbub ul-qulub” da Navoiy aytadi:

“Odam bir badan bo'lsa, himmat uning jonidir; himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi”.

Buyuk mutafakkirning deyarli barcha asarlarida ibratli voqealar, hikmatli so'zlar, pand-nasihatga yo'g'rilgan, falsafiy mushohadalar mavjud. Kishilarni yuksak axloqli, ma'naviyatli etib tarbiyalash g'oyasi ustun turadi. Mana shunday qisqagina baytlarda insoniyat ahlini ezgulikka undovchi fikrlar aks etishi, ulug' allomaning nechog'li donishmand, o'tkir tafakkur sohibi ekanligidan dalolat beradi.

“Hilm – axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir”.

Bunday dunyoqarashlar zamiridan kishining risoladagidek kiyinishi, uning aqli, odobidan darak bermasligini, aksincha, ichki dunyosi ham go'zal fazilatlar bilan bezangan bo'lishi zarurligini anglab yetamiz. Zero, boshqalarga lutf-u karam, saxovat ko'rsatish, ochiq chehra, shirinso'zli bo'lish, tilni yomon so'zlardan tiyish xulqi zebo kishining ziyinatidir.

“Tilini tiyolgan odam – donishmand oqil; so'zga erk bergan odam – beandisha va pastkash”.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” dostonida inson bilimlarni chuqur egallashi uchun muntazam ravishda o'qib-o'rganishi zarurligini, bilmaganlarini ilmli kishilardan tortinmasdan so'rab o'rganishi kerakligini ta'kidlab, ushbu tanbehda shunday deydi: “Bilmaganni so'rub o'rgangan olim va orlanib so'ramagan o'ziga zolim. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. O'rganurdan qochg'on lavand va yuziga hiyal va bahona eshigin ochg'on tanand. Emgak tortib ilm o'rgangan хирадманд.”

“Arbain” asaridagi ushbu to'rtlikda esa shoirning Onaning muqaddasligi, mo'tabar va azizligini e'tirof etadi :

Onalarning oyog'i ostidadir,
Ravzai jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'in visolin istar ersang,
Bo'l onaning oyog'i tuprog'i.



Navoiy o'zi yashagan tuzumdagi mehnatkash xalqning qiyin ahvoli, amaldorlarning o'zboshimchaligi, adolatsizligi, johilligi, ruhoniylarning aldamchiligi va hokazolardan norozi bo'ladi, ularni qoralaydi. Elning obodligi xalq hayotining farovonligiga bog'liq, degan fikrni “Vaqfiya” asaridagi ushbu to'rtlikda aytadi:

To hirsu havas xirmani barbod o'lmas,
To nafsu havo qasri baraftod o'lmas.
To zulmu sitam joniga bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas!

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlari yoshlarimiz ong-u tafakkurini yuksaltirishda, ularda insoniy fazilatlarning shakllantirishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. T.: “Fan”, 2000.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh jildlik. – T.: “Badiiy adabiyot” nashriyoti, 1966. – B.
3. M. Asqarova, M. Xayitboyev, M. S. Nishonov “Pedagogika”. Toshkent – “Talqin” – 2008.
4. www. Ziyonet.uz va boshqa internet manbalari.



ОНА ТИЛИ ВА О‘ҚИШ САВОДХОНЛИГИ ДАРSLARINING FANLARARO INTEGRATSIYALASHUVI

Safarova Ruqiya Abduvali qizi,

Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon:+998 94 379 06 09

Annotatsiya: Maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida berilgan o‘quv materiallarining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi va buning o‘quvchilar dunyoqarashini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Matn, ilmiy-ommabop, uslub, asalari, ko‘zoynak, tabiatshunoslik, matematika, texnologiya, she‘r, tarix, tabriknoma, biologiya, odam salomatligi.

Boshlang‘ich ta‘limning yangilangan o‘quv darsliklarida fanlarning integratsion aloqalari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu darsliklar asosida o‘quvchilarni o‘qitish ularda dunyo birligi haqidagi tushunchani shakllantiradi, hayotiy masalalarni hal qilishda o‘ziga xoslikni, uddaburonlikni, epchillikni rag‘batlantirishni nazarda tutadi.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi tuzilishini tahlil qilsak, darlikdagi badiiy, ilmiy, ommabop o‘quv materiallar turli fanlarning mavzulari bilan o‘zaro integratsiyalashuvini ko‘ramiz.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida bolalarning she‘r va hikoyalar yozish, yangi g‘oya, ixtiro va loyihalar o‘ylab topish, matn, rasm asosida hikoya yozish, biron asbob yoki o‘simliklardan shakllar yaratish kabi mustaqil ijodiyotning turli yo‘llari bilan rag‘batlantirib borish taqozo etiladi. Jumladan, 1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligining fanlararo aloqadorligini misol keltirishimiz mumkin. Darslikda “Asalari qanday boqiladi?” matni berilgan. Bu matn ilmiy-ommabop uslubda, matn tabiatshunoslik va matematika fani bilan o‘zaro aloqador “Maxsus yasalgan uyada 60 mingtagacha asalari yashaydi.” Oila” da bitta ona, 100 dan ortiq erkak va minglab ishchi asalari bo‘ladi. Bitta asalari oilasidan 15-20 kilogrammgacha asal olish mumkin. Inson gul hidini 1 metrdan, asalari 1000 metrdan sezadi, 1 qoshiq asal yig‘ish uchun 19 000 ta gul shirasini oladi, asalari tezligi soatiga 60 kilometr.”

“Ko‘zoynakka qadar” matni ham ilmiy-ommabop uslubda bo‘lib, texnologiya faniga aloqadorligini ko‘ramiz: “Tarixda dumaloq shisha idishlar ko‘zoynak vazifasini o‘tagan, idishning ichi suv bilan to‘ldirilgan, uni ko‘zga yaqin tutib kitob o‘qilgan. Keyin shishadan linzalar yasalgan, ularni qo‘l bilan tutib turish uchun dastagi bo‘lgan.”

2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida berilgan materiallardan namunalar keltiramiz. “Qora oltin” matni neft haqida: “Neft 1500-2000 metr chuqurlikda bo‘ladi, yer ostida xuddi dengiz va daryolardek oqib turar ekan, yurtimizdagi ilk neft koni 1876-yilda Farg‘ona viloyati Qamishboshi qishlog‘idan topilgan.” Bu matn ilmiy uslubda bo‘lib, tabiatshunoslik va matematika fanlari bilan aloqador.

Darslikda Quddus Muhammadiyning “Qanotli do‘stlar” she‘ri berilgan. Bu she‘r badiiy uslubda bo‘lib, she‘r O‘zbekistonda yashovchi zarg‘aldoq, qarqunoq, laylak, mayna, qaldirg‘och, chittak, bulbul, musicha, qizilishton, turna, g‘oz, popishak kabi qushlar haqida, tabiatshunoslik fani bilan aloqador.

2-sinf darsligida “Tug‘ilgan kung bilan!”, “Tabriknoma yozish” mavzulari orqali o‘quvchilarda rasmiy uslub bo‘yicha bilim va tushunchalar shakllantiriladi. “Tug‘ilgan kun tabriknomasini yasash” mavzusi orqali o‘quvchilar texnologiya fanidan olgan bilim va malakalarini amaliyotga tatbiq etadi. “Tanamizni o‘rganamiz” mavzusida rasm asosida suhbat, “Tanamiz-mo‘jizamiz” “Tana a‘zolarining nomi” va “Jismoniy mashqlar” mavzulari bo‘yicha ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda biologiya, odam salomatligi, jismoniy tarbiyaga oid bilimlar shakllantiriladi. “Ibn Sino ulashar davo” she‘rida badiiy satrlarda to‘g‘ri ovqatlanish qoidalari haqida tushuncha beriladi: “Ertalab yengil, Ovqatdan yegil. Ichmoqlikni sut Doim esda tut.” Bu she‘riy matnda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish g‘oyasi ilgari surilgan.

“Samarqand”, “Yozuvning tarixi” matnlari orqali o‘quvchilar tarixiy ma‘lumotlarga ega bo‘ladi. Bu matnlar ilmiy uslubda, tarix va matematika bilan aloqador.

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarida bolalar rasm chizadilar, biror bir narsa-buyum



yasaydilar, she'r va hikoya yozadilar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi har bir mavzuni o'quvchilarga tushuntirishda integrativ yondashadi. O'qituvchi bolalarga faqat umumiy bilimlarga ega bo'lish, masalalarni mantiqan hal eta bilishnigina emas, insonga berilgan barcha his-tuyg'ular ham muhim ekanligini ko'rsatib berishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, tasviriy san/at, matematika, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Bolalarni tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerak. Shunday ekan boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiya bolaning kichik yoshidanoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurini shakllantirish hamda jamiyatning rivojlanish qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir.

Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy-ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi, tarixchi, o'lkashunos, shifokor nuqtayi nazaridan ko'rish muhimdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari. 2017-yil.
2. Ona tili va o'qish savodxonligi. (darslik 1-sinf uchun) 2021-y.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi. (darslik 2-sinf uchun) 2021-y.
4. www. Ziyonet va boshqa internet manbalari.



DARSLARDA KO'RGAZMALILIKNING AHAMIYATI VA KO'RGAZMALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Allaberganova Zebiniso Boltayevna

Xorazm viloyati Yangiariq tumani

3 – maktab ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida ko'rgazmalilikning ahamiyati, vazifalari, turli ko'rgazmalar orqali o'quvchilar ongiga shoir va yozuvchilarning asarlarini yetirish, tushuncha hosil qilish masalalari haqida mushohada yuritilgan.

Kalit so'zlar: dars, ko'rgazmalilik, ko'rgazma, vazifa, adabiyot, o'quvchi, manzara, shoir, yozuvchi, tasvir, fikr, san'at, kompyuter.

Badiiy adabiyot borliqni jonli manzaralarni, obrazlar orqali aks ettiradi. Tabiatiga ko'ra adabiyotning o'zi borliqning ko'rgazmali tasviridan iborat. Ammo adabiyot darslarida san'atning boshqa turlari: Texnika vositalaridan kompyuter, videoproektor, kino, televideniya, musiqa, tasviriy san'at ham yordamga kelishi mumkin. Bular adabiyot darslariga qo'shimcha axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi, o'quvchilarda estetik tuyg'ularning shakllanishi va rivojiga imkon beradi. Shuningdek, adib yaratgan obrazlarning o'quvchi ongida yanada puxtaroq muhrlanishiga yordam beradi.

Hozirgi paytda turli kinoapparatlar, televizor, epidiaskop, kompyuter va boshqalar har bir maktabda ham, har bir xonadonda ham deyarli mavjud. Bularning hisobiga ko'rgazmali qurollar doirasi yanada kengayadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'rgazmalilikdan darsda va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish, bir-biridan o'z xarakteriga ko'ra jiddiy farq qiladi hamda boshqa boshqa maqsadlarni ko'zda tutadi. Buni to'garak ishlarda, fakultativ mashg'ulotlarda olib borish mumkin. Darsda esa ko'rgazmalilik, o'quvchilarning aksari o'zlashtirishiga yordam bera oladigan darajadagina qo'llanishi mumkin. Aks holda u birinchi rejaga chiqib, asosiy mavzu orqa rejada qolishi mumkin.

Adabiyot darslaridagi ko'rgazmalilikning bosh vazifasi, o'quvchilarga adabiy asarni idrok etishda ko'maklashish, yozuvchi ijodini to'laroq tasavvur etishga yordamlashish adabiy-nazariy tushunchalarni egallashga qo'shimcha imkon yaratish, o'quvchilar nutqini o'stirishni ta'minlashdan, bir so'z bilan aytganda adabiyot o'qituvchisi oldida turgan barcha vazifalarni hal qilishga yordam berishdan iborat. Bu xususiyat har bir aniq holatda turli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ko'rgazmalilikdan foydalangandagina darslarda shartli ravishda o'quvchining passiv yoki faol ishtiroki haqida gapirish mumkin.



Agar ko'rgazmali qurol o'quvchi faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasa, undan foydalanmagan ma'qul. Hozirgi paytda ko'rgazmalilikning turlari nihoyatda xilma-xildir: illyustrativ-badiiy



hamda grafik (chizma) materiallar, gramofon yozuvi va radioeshittirishlar, kinofilm va o`quv filmlar, televizion darslar, slaydlar va h.k. Ularning har biri ko`rish, eshitish, sintetik shakldosh ko`rgazmalilikka tegishli bo`lishi mumkin. Ayniqsa ko`rish bilan bog`liq bo`lgan ko`rgazmalilikning ahamiyati kattadir. Bunga yozuvchi va shoirlarning portretlari, asarlarga illyustratsiyalar, yozuvchi (adib) hayoti va ijodiga aloqador bo`lgan joylar fotografiyasi, yoki yozuvchiinning hayoti bilan bog`liq fotosuratlar, va boshqalar kirishi mumkin. Har holda eng kamida darslik va darslik majmualaridagi rasm namunalari shu vazifani bajarishi mumkin. Otkritka ko`rinishidagi rasmlardan tarqatma material sifatida foylanish mumkin. Uning qulayligi shundaki, bu holda har bir o`quvchining qobiliyati va imkoniyatini ham nazarda tutish mumkin. Yozuvchi hayoti va ijodini o`rganishga doir albomlarda tasviriy san`at asarlaridan namunalargina emas, yozuvchining o`zi va zamondoshlari aytgan fikrlar, xatlardan namunalari bo`lishi mumkin. Tinglash bilan aloqador ko`rgazmalilik ham alohida mavqega ega. Asarni, xususan she'riy asarlarni to`liq tushunish va hazm qilish uchun adib yaratgan tovushni obrazlarni eshitish, his qilish va baholash ham nihoyatda beqiyos ahamiyatga molik.

Oybek, H.Olimjon, E.Vohidov, A.Oripovlarning tovushlari yozilgan disklar, A.Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat she'rlari bilan aytiladigan qo`shiqqlar plastinka va disklar butun o`rgatuvchilarimiz ko`p qiyinchiliksiz topishi mumkin bo`lgan va amaliyotga ko`p qo`llaydigan manbalardir. Musiqa va badiiy-ifodali o`qish, adabiyot o`qitish jarayonida o`quvchilar faolligini oshirishda katta ijobiy rol o`ynaydi. Disklarning adabiyot darslaridagi zaruriyati ba'zan nihoyatda ochiq seziladi. Masalan, quyi sinflarda ertak va dostonlarni, xalq qo`shiqlarini faqat eshitish emas, balki xalq baxshilari, laparchilari, qo`shiqchilarining ijrosini kuzatish ham maroqli va ta'sirliroq bo`ladi. Ammo ko`rgazmalilikning asosiy narsa emas, balki "ikkinchi darajasi" material ekanligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Adabiyot o`qituvchisi ko`rgazmalilikning qaysi turidan va qanday holatda, shuningdek, qay miqdorda foydalanishini o`zi belgilab olishi shart. U darslar tizimi, yoki bir darsning muayyan qismi bo`lishi mumkin.

O`quvchilarni kitob o`qishga qiziqtirishda ko`rgazmali qurollar muhim didaktik vosita sanaladi. Agar ko`rgazmalilikning didaktik funksiyasi oldindan puxta o`ylab ko`rilmasa, dars samaradorligi bir qadar susayishi, ayrim holatlarda esa unga mutlaqo salbiy ta'sir ko`rsatishi mumkin. Adabiyot darslaridagi ko`rgazmalilik oxirgi maqsad emas, balki vositadir. Shunga ko`ra o`quvchi filmni yoki rasmni ko`rib, kuy yoki qo`shiqni tinglab bo`lganidan keyin unga shunday savollar berilishi lozimki, bu topshiriq va savollar o`quvchini badiiy asar ichiga olib kirishga, badiiy obraz yoki tasvir mohiyatini chuqurroq anglashga, so`zning ta'sir kuchini yaqqolroq his etishga yordam bersin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Zunnunov va boshqalar. Adabiyot o`qitish metodikasi. -T.: O`qituvchi. 1992.
2. N.G`ulomova. O`quvchilarning badiiy adabiyotga bo`lgan qiziqishlarini orttirish. T.: Til va adabiyoti ta'limi. 1992.
3. www.adiblar.uz
4. www.tadqiqot.uz



**ANVAR OBIDJON ASARLARI YOSH AVLODNI UMUMISONIY QADRIYATLAR
RUHIDA TARBIVIALSHGA XIZMAT QILADI**

Axmedova Gulnoz Isomurodovna,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon:+998 93 547 74 97

Annotatsiya: Maqolada Anvar Obidjon she'rlarining o'ziga xosligi, asarlari bolalar ruhiy olamini ochib berishi, ularni ezgulik va yaxshilik sari yetaklab, kitobga oshno etishi haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Rang-barang, sahnaviy, qo'shiq, sirli olam, bola, boyqush, boshlang'ich sinf, “Meshpolvonning o'yinlari”, milliy qadriyatlar, “Tekinxo'r”.

O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon nihoyatda serqirra ijodkor: nazmda, nasrda, dramaturgiyada birdek ijod qilgan. Publisistika va adabiyotshunoslikda ham o'z o'rniga ega. Kattalar uchun ham turli janrlarda asarlar yaratgan.

Anvar Obidjon she'rlari – bolalar qalbi, ruhining yorqin ko'zgusi. Uning asarlari o'zidek quvnoq, goh o'yechan, tili sodda va shirin, xalqchil. Qahramonlar insonparvar, bag'ri keng, hazilkash bolalar. Shu tufayli shoir barcha bolalar diliga osongina yo'l topa oladi. Anvar Obidjon so'zlarni chertib-chertib, bolalarning yosh xususiyatlariga mansublarini tanlab, o'z o'rnida ishlatadi. Har qanday bola Anvar Obidjonning she'rlarini tutilmasdan, qiynalmasdan, erkin, ravon o'qiydi. Shoir she'riyati mavzusi rang-barang, Uning she'rlari kitobxon qalbiga kirib boradi

Iste'dodli ijodkorning ajoyib jozibakor asarlari bolalar ruhiy olamini ochib beradi, ularni kitobga oshno etadi. Sevimli adib asarlari sahnaviy, tomoshaboplik xarakteriga ega. Uning “Oltin yurakli Avtobola” qissasi asosida suratga olingan “Tilsimoy-g'aroyib qizaloq”, “Dahshatli Mehrpolvon” nomli filmlarni bolalar sevib tomosha qilmoqda. Shoir she'rlari qo'shiq bo'lib kuylanmoqda. “O'zbekiston askarlari” qo'shig'i milliy armiyaning birinchi saf qo'shig'iga aylangan. O'qituvchi bu ma'lumotlarini audio-vedio vositalarida mavzuga moslab foydalansa, o'quchilarda yaxshi taassurot qoldiradi, bolalar o'zlarida yaxshi fazilatlarini shakllantirishga, kamchilik va nuqsonlarni bartaraf qilishga intiladi. Shoir she'rlarini o'qir ekanmiz, bolalikning sirli olamiga sayohat qilamiz, shirin xotiralarimiz uyg'onadi, zavqli onlarimizni eslaymiz. Ijodkorning asarlari hayotimizda yashiringan bolalik damlarimizga sayohatga yetaklaydi, qalbimizda bolalikning go'zal tuyg'ulari jo'shtiradi.

“Vatan” she'rida shoir bola va Boyqush munozarasi orqali inson uchun o'zi tug'ilib o'sgan Vatanni hech qanday boylikka qiyoslab bo'lmasligini kichkintoylarga xos sodda, samimiy tilda ifoda etilganini ko'ramiz:

-Senga bitta savol bor,	-Asl boylik nelingin
Menga quloq sol, hoy qush.	Tushunmaysan, chamasi.
Vayronada yashaysan,	Bu vayrona bo'lsa ham,
Noming esa Boyqush.	O'zimmiki hammasi.
Ayt-chi, nahot sen boysan?	Shuning uchun men boyman!

Atoqli shoirning she'rlari boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklariga kiritilgan. 1-sinfda “Meshpolvonning o'yinlari”, “Tekinxo'r”, “Mahallaning jarchisi” va 2-sinfda “Oqshom”, “Harflar nimaga o'xshaydi” she'rlari o'rganiladi.

“Meshpolvonning o'yinlari” she'rida xalq o'yinlari tasvirlansa, “Tekinxo'r” she'rida tengsizlik, boshqalar hisobiga mehnat qilmay kun ko'rish qumursqavoy-chumolining topganini yeb qo'ygan chumchuq obrazi orqali aks ettirilgan:

Qumursqavoy	Chumchuq kelib
Topib uvoq,	Sekingina,
Terga botib	Yutdi-qo'ydi
Topdi uzoq	Tekingina...

Darsda “Tekinxo'r” she'rini tahlil qilish jarayonida o'quvchilarga jamiyatda o'zgalarning mashaqqat bilan topganiga sherik bo'lish, tekinxo'rlik illat ekanligi, kelgusida bunday kishilardan ehtiyot bo'lish lozimligi uqtiriladi.

“Mehrpolvonning o'yinlari” she'ri orqali shoir o'zbek milliy an'ana va qadriyatlarimizni



ulug‘lash , qadrlash g‘oyasini ilgari suradi. She‘r yosh avlod qalbida milliy an‘ana va qadriyatlarimizga nisbatan hurmat tuyg‘usini oshiradi va ularda xalq o‘yinlarini o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi. She‘rda o‘z xalqining milliy an‘analari va qadriyatlarini bilmagan kishi tanqid ostiga olinadi:

Sho‘ring qursin, baxmal chopon,
Ulg‘ayibsan juda nodon.
Oshiq nima, bilmasmisan?
O‘zbakmisan, habashmisan?
Bordir yana yong‘oq o‘yin,
Yutsang – ovqat ikki qo‘yin.

Xalq o‘yinlari avloddan-avlodga o‘tib kelgan, ota-bobolarimizdan meros ekanligini shoir shunday ta‘riflaydi:

O‘ynaganlar “Oq-ko‘k terak”,
“Halov, tuya”, “Tojixo‘roz”...
Chopa olar naq pirpirak.
E, bularni kim bilmabdi,
Yetti pushtdan qolgan meros
Bu dunyoda tug‘ilmabdi.

She‘rda chizma-chiziq, dasta, yoppa kurash, arqon ntortdi, eshak mindi, quloqcho‘zma, mo‘ri-mo‘ri, bekinmashoq, urshapaloq, hakkalakam, to‘ptosh, oq-ko‘k terak kabi o‘zbek xalq milliy o‘yinlari nomijozibali ravishda ifodalanadi.

Sevimli shoiri va adib Anvar Obidjon asarlari yosh avlodni umumisoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalshga xizmat qiladi. Bolalarni ezgulik, yaxshilik sari yetaklab, ularda insoniylik xislatlarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti (Darslik-majmua).T. O‘qituvchi.2008-y.
2. K. Turdiev. “Bolalar adabiyotining fidoyisi” (To‘plam) 2004-y.
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. [Matn]: 1-sinf uchun darslik. 2021-y.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. [Matn]: 2-sinf uchun darslik. 2021-y.



ALISHER NAVOIY: YOR ILA BIR XILVAT ISTARMENKIM...

Bozorova Xurshida Fatulloyevna

Tolibova Zulayho Dilmurodovna

Navoiy viloyati Uchquduq tumani

10-sonli maktabning ona tili va adabiyot

fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ulug' mutafakkir A.Navoiy g'azallarida tasavvufiy qarashlarni bir g'azal sharhi orqali tahlil etish va o'quvchilarga g'azalning mazmun – mohiyatini anglatish haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: A.Navoiy, adabiyot, she'r, tasavvuf, ijod, g'azal, xilvat, sir, g'oya.

A.Navoiyning tasavvufiy qarashlarini bir necha adabiyotshunoslar o'rganib qayd etganlar. Adabiyotshunos N.Komilov shunday yozadi: “A.Navoiy o'zining tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq g'oyalarni, Allohning hamma narsaning tashqarisida emas, balki ichida, o'zida ekanini ko'rsatish va isbotlashga harakat qiladi. Insonning ulug'vorligi majoziy uslub bilan, ta'sirli qilib, real ijtimoiy, axloqiy hodisalar ila bog'lab tasvirlangan. Tasavvufning vaxdat ul vujud nazariyasi ham shu tarzda o'zining badiiy in'ikosini topgan. Bu bilan Navoiy tasavvuf g'oyalarini keng kitobxonlar ommasiga badiiy ko'rkam va jonli yetkazishda oliy darajada san'atkorlik ko'rsatgan”.

Ibrohim Haqqul tasavvuf va A.Navoiy she'riyatiga doir o'z fikrlarini bildirar ekan, shunday deydi: “Ruh va yurakning mushohada quvvati va quvonchini aks ettiruvchi hol Navoiy nazdida ham eng yaxshi amaldan-da ustun va sharafli sanalgan. Chunki ko'ngli zarif, ruhi latif, axloqi go'zal, ma'naviy hayoti jo'shqin hol sohiblari ishq va haqiqatning yuksak cho'qqilarini egallashga musharraf bo'lishgan”.

Haqiqatdan ham, Alisher Navoiy tasavvufiy g'oyalarini go'zal satrlarda ta'sirli ifoda etadi, ruhiyat latifligiga intiladi, Keling, buni biz “*Yor ila bir xilvat istarmanki...*” g'azalini tahlil qilish orqali ko'rib chiqaylik.

Yor ila bir xilvat istarmenki, ag'yor o'lmag'ay,

Balki ul xilvatning atrofida dayyor o'lmag'ay.

Shoirning bu satrlarini o'qir ekanmiz, eng avvalo, xilvat o'zi nima, qanday makon?- degan savollar tug'iladi. “Xilvat quyosh shu'lalari va kunduz yorug'ligi kirmaydigan qorong'u bir yerda turli xil mashg'ulotlardan yiroqlashib ibodat qilmoqdir. Xilvatga chekinmoq-til va dilni ofatlardan asramoq, ko'ngilga ziynat, vujudga osoyish bermoq, tafakkur va muroqaba chegaralarini behad kengaytirmoq demak”,-deb yoziladi Najmiddin Kubro “Tasavvufiy hayot” kitobida. A.Navoiy g'azalning birinchi satrida yor bilan (Alloh bilan)birga bo'lmoq uchun bir xilvat istayotganini ta'kidlar ekan, u begonalar, o'zgalar bo'lmasligini aytadi. Begonalar, o'zgalargina emas, hatto u yerda turuvchilar-istiqomat qiluvchilar ham bo'lmag'ay, -deydi. Demak, shoir shunday makonda yor-olloh bilan yolg'iz qolishni istaydi.

Eldin andoq yoshurun istarmen ul xilvatnikim,

Ko'nglim andin voqifu jonim xabardor o'lmag'ay.

Ikkinchi baytda shoir shu o'zi izlagan, yurak-yuragidan istagan xilvatini eldan shunday yashirishni xohlaydiki, hatto o'z ko'ngli ham uni biluvchi, joni ham xabardor bo'lmasin. Ko'rinib turibdiki, bu xilvatdan shoir hatto o'z ko'nglini ham, jonini ham xabardor bo'lishini lozim topmayapti. U ruhi bilan qolmoqchi; butun ruhiyati bilan yor ishq-la bo'lmoqchi.

Ko'zga ko'nglim dardidin yig'larg'a imkon qolmag'ay,

Tilga dardim sharhini aylarg'a guftor o'lmag'ay.

Ko'ngilda dard to'lganda ko'zga yosh ilinadi. Ammo shoir bu satrlarda ko'ngil dardini to'kib soladigan ko'z uchun yig'lashga imkon bo'lmaydi. Tilga dildagi dardlarini izohlash uchun, sharhlashga so'z, ibora bo'lmagay, -deydi. Nega? Chunki xilvat holati qalbg'a sokinlik, xotirjamlik bag'ishlaydigan bir holat. Shu sababdan dardini bildirgani ko'z yosh, guftor bo'lmaydi.

Yor budi ichra nobud o'lg'aymenkim, o'rtada,

O'zgalikdin demakim, o'zlikdin osor o'lmag'ay.

Bu misralarda shoir shunday deydi: Yor budi, ya'ni yor vujudi uchra nobud bo'lg'aymanki, o'rtada o'zgalik, begonalikni aytmagin, o'zlik-menlikdin nishona yo'qdir. Menlik-kibr-havo, g'urur, nafs... Inson shu jihatlarni yengishi, ya'ni menlik ustidan g'alaba qozonishi lozim. Demak,



shoir o'zgalik, begonalikkina emas, o'z menligidan ham noshona yo'q makon-xilvatni istaydi.

Buki, derlar bordurur devor keynida quloq,

Ul fazo davrida ko'z yetguncha devor o'lmag'ay.

Bunda, shoir yashab turgan makonda “Devor ortida quloq bordir”, -deyishadi. Ya'ni devor bor, kimsa bor, eshitar quloq bor, ammo ul xilvat makonida ko'z ilg'aguncha devor yoqdir. Demak, to'rt tarafi o'ralgan uyda yolg'iz bo'lsangda, seni o'rab turgan devor ortida quloqlar bo'lishi, ya'ni sen haqingda turli mish-mishlar tarqalishi mumkin. U yer devori yo'q, eshitar quloqlari ham yo'q keng fazodir.

Maxfiy asroring'a bo'lg'ay yor lafzidin ado,

Yordin ayru va lekin sohib asror o'lmag'ay.

Sir –yashirin, pinhon narsa. Tasavvufda Alloh ila qul orasidagi yashirin haqiqat. Til ila izhor etilmas ma'no. Puh-ishq, qalb-ma'rifat, sir-mushohada manzili erur. Sir inson vujudidagi ruhga o'xshash bir latiflik. Ruh qalbdan ustun bo'lganidek, sir ruhdan ustun mavqega ega. Sirni sirga ulash-ilohiy birlikka yetishmoqlikni anglatadi. Shuning ushun shoir bu baytda yashirin sirlarimni eshitgan yor so'zini ifodalay olmay qoladi. Yordan (Allohdan) o'zgasi menga sohibi asror-sirdosh bo'lmaydi, -deydi shoir.

Ey Navoiy, qilma har yor ollida siringni fosh,

Bormudur imkonikim, ul yorg'a yor o'lmag'ay.

A.Navoiy g'azalni yakunida o'ziga murojaat etgan holda, har yor oldida bu sirini fosh etmasligini ta'kidlar ekan, ul yorga, ya'ni Allohga yor bo'lmaslikni imkoni bormudur, -deya ta'kid bilan yakunlaydi. Yaratganga bo'lgan muhabbat, unga yor, oshiq bo'lish, har ko'ngilda ertami kech ishq jilvasi o'rin topishini uqtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, A.Navoiy o'z g'azali orqali insonlarni o'z “men” ligini yengishga, nafs bilan kurashishga o'zini chog'lash, qalbini poklash va bu poklik sabab ruhni ko'klarga ko'tarishga chorlaydi. Haqiqiy yorga oshiqlik, unung bilan birlikka erishish va bunda xilvatning, xilvatiy zikrlarning beqiyosligi o'z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.G'oziyeva. Alisher Navoiyning “Yor ila bir xilvat istarmenkim...” g'azali tahlili, tasavvufiy hayot aksi.

2. Alisher Navoiy “Qaro ko'zim” O'zbek adabiyoti bo'stoni Toshkent

3. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot . Toshkent -2004 “Movarounnahr”



ABDULLA AVLONIYNING TA'LIM-TARBIYA SOHASIDAGI QARASHLARI

Haydarova Nargiza Mutalibovna
Farg'ona viloyati Farg'ona shahri
14-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasida qilgan ishlari va ta'lim-tarbiya sohasiga oid didaktik qarashlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: A.Avloniy, ta'lim, ilm, jadid, darslik, tarbiya, maktab, xulq, fikr.

Abdulla Avloniy o'zbek jadid adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, XX asr ta'lim-tarbiya taraqqiyotiga o'ziga xos hissa qo'shgan. Avloniy 30 yildan ortiq vaqt mobaynida ijod qildi. Avloniy o'ziga “Hijron” taxallusini tanlaydi va shu taxallus bilan she'rlar bitadi.

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentning Shayxontohur daha, Mergancha mahallasida tug'ildi. Otasi Miravlon to'quvchi-hunarmand edi. Yosh Abdulla O'qchi mahallasidagi eski maktabda savod chiqardi, 1890-yildan mahalla madrasasida, so'ng Shayxontahurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxun qo'lida tahsil ko'ra boshladi, ammo oilaviy sharoitning og'irlashuvi o'qishni davom ettirishiga imkon bermadi. 14 yoshidan boshlab mardikorhilik, 18 yoshidan ustalik, suvoqchilik, duradgorlik, pechkachilik ishlari bilan shug'ullandi. Keyinchalik tarjimai holida quyidagilarni yozadi: «Madrasadan chiqib ketsam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim».

Abdulla Avloniy shoir, yozuvchi, dramaturg, ammo pedagogika uning hayotidagi muhim sahifani tashkil etadi. U faoliyatning ilk bosqichidan to umrining so'nggi damlarigacha o'qituvchilik qildi, pedagogika fanining ham nazariy, ham amaliy masalalari bilan mustaqil shug'ullandi, darsliklar yaratdi. XX asr zamonaviy o'zbek pedagogikasining asoschisi, o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi fanining tamal toshini qo'ygan mutafakkirdir. 1904-yilda Abdulla Avloniy Mirobod mahallasida eski maktablardan farq qiluvchi usuli jadid maktabi ochdi va o'zi mudirlik hamda o'qituvchilik qildi. Shu vaqtdan uning pedagogik faoliyati boshlandi, maktabning dovruqi Toshkentning uzoq chekkalariga ham tez tarqaldi. Abdulla Avloniy usuli jadid maktablarini darsliklar bilan ta'minlash ishiga alohida e'tibor berdi. 1905-1917-yillar orasida o'nga yaqin darslik va qo'llanmalar yaratdi. U yaratgan alifbo darsligi ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi alifbo qismida harflar tanitiladi, ularning so'z o'rniga qarab oladigan shakllari o'rgatiladi. O'qitishni soddaroq shaklga ega bo'lgan harflardan boshlaydi, ya'ni darslar soddadan murakkabga o'tib boradi. A.Avloniy darslik tuzishda ham, dars berish jarayonida ham didaktik prinsiplarga to'la amal qildi. Darslikning alifbo qismi olti oyga mo'ljallangan. Ushbu qismda o'qish bilan parallel yozishga ham o'rgatib boriladi.

A.Avloniy o'quvchilarni estetik tarbiyalashda, ularning og'zaki nutqini o'stirishda maktabning pastki sinflaridayoq ifodali o'qish metodiga alohida e'tibor beradi. Shuning uchun ham muallifning ushbu «Birinchi muallim» va «Ikkinchi muallim» darsliklari usuli jadid maktablarida ancha keng qo'llangan va bir necha bor qayta nashr qilingan.

A.Avloniy didaktik qarashida ifodali o'qishning turlari, birinchidan, o'quvchilarda kitobga, so'z san'atiga havas uyg'otsa, ikkinchidan, o'quvchilar faolligini keskin oshiradi, ya'ni dars davomida o'quvchilarning deyarli hammasi faqat tinglovchi emas, ishtirokchi sifatida qatnashadi, ularning butun harakati bir masalani yoritishga qaratiladi. A.Avloniy ifodali o'qishni o'z darslarida estetik tarbiya vositasi sifatida ham qaragan.

Didaktik qarashlari va hur fikrlar bilan ma'rifat maydoniga chiqqan Abdulla Avloniy o'z darsliklarida o'qishning elementar shakllari bilangina cheklanib qolmadi, ayni zamonda, o'sha davrda ilm-ma'rifat tarqatish, xalqni ilm-fanni egallashga chaqirish yo'lida jiddiy ish olib bordi.

A.Avloniyning „Turkiy guliston yohud axloq“ asari, asosan, inson axloqi, ya'ni yaxshi va yomon xulqlar haqida fikr yuritadi. Asarning boshidayoq inson hayotida tarbiyaning buyuk ahamiyatiga zamondoshlar e'tiborini qaratadi. Inson hech qachon yomon bo'lib tug'ilmaydi yoki yaxshi odamdangina yaxshi farzand yoki yomon odamdangina yomon odam tug'ilmaydi, farzandning barkamol inson bo'lib yetishuvida tarbiyaning ahamiyati buyukligini ta'kidlaydi: Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u davlat, jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk ijtimoiy ishdir, u shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog'liq.



Avloniy so'zlari bilan aytganda «... tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir».

A. Avloniy ta'lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatining ifodasi bo'lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafiga, barkamollikka erishadi, bu o'rinda o'qituvchining fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasining har jihatdan yuksakligi o'quvchilari tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o'quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo'lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo'lishga o'rgatadi.

A. Avloniy aql, ilm, tajriba bilan kamol topadi deydi. Avloniy fikricha, ilm har ishda bizga rahnamo, ikki dunyo saodatiga eltuvchi ulug' ne'matdur. Ilmsiz kishi mevasiz daraxt kabidur.

Abdulla Avloniyning qarashlari hozirgi kunda ham komil insonni kamol toptirishda kishilarni chinakam tuyg'ular, umuminsoniy ezgu g'oyalar ruhida, vijdoniylik ruhida tarbiyalash borasida qimmatli manba sifatida e'tiborni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari.
2. A. Boboxonov, M. Maxsumov. “A. Avloniy pedagogik faoliyati”.
3. K. Hoshimov va boshqalar. Pedagogika tarixi.
4. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi.



NAVOIYNING ILMİY MEROSINI O`RGANISH

Jumaniyozova Xursandoy Marks qizi

Xiva tumanidagi 13-son maktabning
ona tili va adabiyot o`qituvchisi

Sobirova Dilrabo Rajabbayevna

Xiva tumanidagi 36-son maktabning
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola Alisher Navoiyning ilmiy merosini o`rganishda muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

Kalit so`zlar: Adabiy yodgorlik, muammo janri, badiiy adabiyot, adabiy janr.



Navoiy ko`pqirrali san`atkor. U Shoir sifatida qanchalik shuhrat topgan bo`lsa, davlat arbobi, tilshunos va adabiyotshunos sifatida ham shunchalik mashhur va taniqlidir. Navoiy so`z san`atining turli masalalariga doir fikrlari bilan ham, adabiy yodgorliklari va zamondoshlari asarlariga doir mulohazalari bilan ham badiiy adabiyotning ravnaqi uchun xalqqa xizmat qilishi uchun harakat qildi.

Alisher Navoiy adabiyot shunoslikka doir uch asar yaratdi. Bular: «Majolisun-nafois», «Mezonul-avzon» va «Mufradot». XV-asradabiy hayotining ma`lum bir ko`zgusi bo`lgan «Majolisun-nafois»da Navoiy 450 dan ko`proq shoirning hayoti va ijodi haqida qimmatli ma`lumotlar beradi. Aniq misollar asosida shoirlar asarlaridagi yutuq va kamchiliklarini ko`rsatib beradi. «Mezonul-avzon» esa adabiyot nazariyasiga

oid asar bo`lib, unda Navoiy aruz vazni haqida bahs yuritib, aruz nazariyasini boyitdi va rivojlantirdi. «Mufradot» /ikkinchinomi «Risolayimuammo»/ muammo janriga bag`ishlangan asar bo`lib, bu asarida Navoiy muammo janrining xususiyatlari va qoidalarini yoritdi. Navoiy zamonida muammo janri keng tarqalgan bo`lsada, asosan, fors tilida yozilar edi. Navoiy o`zbek tilida muammo yozgan ilk o`zbek shoirlaridan bo`ldi. «Xazoyinul-maoniy»ga uning 52 muammosi kiritilgan. Fors tilidagi muammolarini esa 500 ta chamalaydilar. Shoir muammoni tuzish va yechish qoidalariga bag`ishlangan ushbu asarini forscha yozdi.

Navoiy ko`plab yosh shoirlarning, san`at ahlining homiysi, ustoz edi. U badiiy adabiyotga talabchanlik bilan munosabatda bo`ldi. Shoir qalam ahllari bilan turli suhbat va munozaralar uyushtirar, ularning asarlaridagi yutuq va kamchiliklarni ko`rsatar edi. Navoiy ko`pgina asarlarida adabiyot va hayot, adabiyot va til, shakl va mazmun, adabiy an`analar, yozma adabiyot va xalq og`zaki ijodi, adabiy janrlar va boshqalar haqida mulohaza yuritadi, so`z san`atkorlari haqida bahs etadi. Navoiy badiiy adabiyotning inson hayotidagi, ma`naviyatidagi ahamiyatini teran angelaydi. Uningcha, badiiy adabiyot kitobxonlarning ongi, hissi va didiga ijobiy ta`sir qilishi kerak. Navoiy xudbin, didsiz va qobiliyatsiz shoirlarni, maqtanchoq, ma`nisiz nozimlarni qattiq tanqid qiladi. Navoiy badiiy ijodda mazmun va shaklga alohida e`tiborni qaratdi. Navoiy o`z davridan kelib chiqqan holda nazmni nasrdan yuqori qo`yar, She`riy shaklga katta ahamiyat beradi. She`r mazmuni bilan ham, shakli bilan ham go`zal bo`lishi kerak, deydi Navoiy:

Nazmda hamaslan gama`nidurur,
Bo`lsunaning surati harnedurur.
Nazm kim a`niang amarg`ub emas,
Ahlima oniy qoshida xub emas.
Nazmki ham surat erur xushanga,
Zimnida ma`ni dog`idil kashanga.

Navoiy xalqning ma`naviy boyliklariga, xalq og`zaki ijodiga katta e`tibor beradi. Navoiy turli adabiy janrlarni ta`rif va tavsif etadi. G`azal, qit`a, ruboiy, tuyuq, dostonchilikka alohida e`tibor beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. T., 1978. www.arxiv.uz sayti.



**FARID USMON SHE'RIYATI BOLALAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA
MUHIM O'RIN TUTADI**

Qo'ldosheva Mohichehra Rahmonqulovna,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchi
Telefon: +998 90 086 92 83

Annotatsiya: Maqolada Farid Usmon ijodi haqida ma'lumot berilgan. Shoir she'rlaridan namunalar keltirilib, ularning g'oyaviy mazmun-mohiyati va bolalar tarbiyasidagi ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: She'riy to'plamlari, hikoyalari, “Men kichikmas kattamas” “Quyosh rasmi”, baxtli bolalik, tozalik, ozodalik, bolajonlar o'yini, komil inson.

Farid Usmon hikoya, she'r va g'azallari bilan keng kitobxonlar orasida tanilgan ijodkordir. Uning "Umid gulzori", "Sadoqat", "Navosiz navo", "Qadr kechasi", "Ul qaro ko'z bo'lmasa", "Jon qushi" kabi she'riy to'plamlari hamda "Husn devoni" kitobi nashr etilgan. Farid Usmon shoir bo'lib qolmasdan, nasrda ham mazmunan boy, hayotiy va qiziqarli hikoyalar yaratgan.

Farid Usmon “Qochoq par yostiq”, “Meni sev”, “G'ildirakli uy”, “Tunda chop- gan oq tulpor”, “Hurkak oy” kabi hikoyalari o'zbek xalqi hayoti haqidagi voqealarni, “Tush”, “Suhayli Yamaniy”, “Devonda”, “Sariq va qizil gullar yurti” kabi tarixiy hikoyalari esa buyuk sarkarda va hassos shoir Zahiriddin Muham- mad Boburning hayoti bilan bog'liq voqealarni qalamga olgan.

Farid Usmon bolalar uchun ham ajoyib she'rlar yozgan. Shoir she'rlari bolajonlarimiz ma'naviyatini boyitishda, ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Uning “Men kichikmas kattamas” “Quyosh rasmi” she'riy to'plamidan joy olgan she'rlari bolalarda katta qiziqish uyg'otgani bo'lishi tabiiy hol. Jumladan, “Quyosh rasmi” kitobidagi ushbu she'rlar bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi. To'plamdagi “Vatan” she'ri o'quvchida Ona yurt bag'rida o'sayotgan baxtli bolalik davri, qalbi quvonchga to'la bolaning sho'x-shodon qo'shig'i bo'lib yangraydi:

Ona diyorum mening,
Aziz vatan, gul vatan.
Sen haqingda kuylayman,
Bo'lib sho'x, bulbul vatan...

Tozalik va ozodalik haqidagi “Sovun”, “Suv bilan” she'rlari bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ahamiyatlidir. “Sovun” she'ri sodda tilda yozilgan bo'lib, qisqa satrlarda katta bir mazmun ifodalangan: “Qo'l yuvganda, Yuz yuvgan- da, Sovun bizning oshnamiz... Pokizalik o'rtog'imiz-Doim ochiq yo'limiz” deya shoir bolalarni tozalikka, ozodalikka rioya qilishga da'vat etadi.

“Suv bilan” she'rini o'qigan o'qigan bola mevalarni yuvib iste'mol qilish kerakligini anglaydi:

Oyim har gal:
- Erinmasdan
Mevalarni yuv, - deydi.
Sog'liq uchun zararli
Mikroblarni quv, - deydi.
Xo'p deyman-u lagan to'la
Mevalarni yuvaman.
Oyim aytgan mikroblarni
Suvlar bilan quvaman.

“Alifbe”, “Qo'g'irchoqning qo'ng'irog'I”, “Polizda”, “Guvala qildik” kabi kichik-kichik she'rlarida kichiktoy bolalar hayoti va o'yinlari aks etgan. “Guvala qildik” she'rida qishloqdagi bolajonlar o'yini sodda va ixcham misralarda ifoda etilgan:

Yerni yorib
Loyni qorib,
Qilib ketdik
Guvala.
Rustam, Ali
Va men ya'ni



Uch og'ayni,
Uch bola...

Boshlang'ich ta'limda 2021-2022-o'quv yilidan ona tili va o'qish fanlari “Ona tili va o'qish savodxonligi” bitta o'quv predmeti sifatida birlashtirildi. Yangilangan darslikdagi o'quvchilar nutqini o'stirish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni kasb-hunar o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish kabi turli mavzularidagi badiiy, informativ, ilmiy-ommabop matnlar va she'rlar o'quvchining ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi. Jumladan, 2-sinf darsligiga Farid Usmonning “Yo'qolgan quloq” va “Shamol nega shamollamas?” she'rlari kiritilgan. Hazil-mutoyiba shaklidagi “Yo'qolgan quloq” she'rida gapga quloq solmaydigan bolalar yengil kulgi ostiga olinadi:

-Uyimizda nimagadir

Bugun quloq yo'qoldi...

...Hammamizning qulog'imiz

Joyida edi, lekin...

...Ravshan akam yerga qarab,

Boshin egib turardi.

“Shamol nega shamollamas?” she'rida shoir shamol misolida inson sog'lom, jismonan baquvvat bo'lishi uchun jismoniy harakat qilishi kerakligini uqtiradi:

...Rostdan polvon shamoldir.

Ko'p yugirib turganidan

Sog'lom ham barkamoldir.

Muxtasar qilib aytganda, Farid Usmonning Vatanni sevish, ardoqlash, millat uchun qayg'urish tuyg'ulariga yo'g'rilgan she'rlari yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha “O'qish” fanidan o'quv dasturi. T. 2017-yil.
2. 2-sinf. Ona tili va o'qish savodxonligi. (Darslik 1-qism) 2021-yil.
3. So'zing bulbul esa bo'stonsiz qolmas.(Farid Usmon ijodi haqida) “Andijon nashriyot-matbaa” MCHJ. 2013-y.



“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONI BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDA—
DASTURILAMAL

Ravshanov Toshniyoz Tuxtatosh o‘g‘li,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
17-maktab tarix va tarbiya fani o‘qituvchisi
Telefon:+998 99 757 92 05

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni didaktik asar bo‘lib, unda mutafakkirning axloqiy-ma’naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy ifodalab berilganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maqolat, hikoyat, yaxshi ismlar, muallim, mansab, martaba, boylik, odob, ota, ona, farzand, tarbiya, insonparvarlik g‘oyalari.

Alisher Navoiyning “Xamsa” asarining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” didaktik ruhning ustuvorligi, obrazlar rang-barangligi, o‘sha davr jamiyatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy muammolar haqida falsafiy va axloqiy-ta’limiy masalalarni qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

“Hayrat ul-abror” dostonida uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o‘ta dolzaib bo‘lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug‘ mutafakkimning teran axloqiy—ma’naviy, ijtimoiy—falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan.

Hazrat Navoiy dostonida oila masalasiga alohida e’tibor qaratib, ota-onaning farzand oldidagi burchlari haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi. Farzandlarga yaxshi ismlar qo‘yish ota-onaning farzi hisoblanadi. Zero, farzandlar ismlari tufayli uyalib yurmasligi kerak:

Birisi qo‘ymoqlik erur yaxshi ot,
Kim desalar yetmagay andin uyot.

Ulug‘ shoir ota-onalarga o‘z farzandini ma’nan sog‘lom, aqlli, bilimli, odobli, axloqli etib voyaga yetkazish uchun uni muallim-o‘qituvchi tarbiyasiga bering, degan fikrni ilgari suradi:

*Qilmoq erur biri muallim talab
Qilg‘ali ta’lim anga ilmu adab.*

Buyuk alloma dostonida insonni mukarram etuvchi fazilatlar hamda tubanlikka boshlovchi illatlar haqidagi fikr bildirib, mansab, martaba, boylik odob o‘rnini bosa olmasligini shunday ta’kidlaydi:

Elga sharaf bo‘lmadi joh-u nasab,
Lek sharaf keldi xayov-u adab.

Ulug‘ mutafakkirning odob va odobsizlik haqidagi qarashlari har bir kishi uchun ibrat namunasidir. Hatto kulgi ham me‘yoridan ohsa, odobsizlik hisoblanishini shunday ta’riflaydi shoir:

Kulguki o‘z haddidin o‘ldi yiroq,
Yig‘lamoq andin ko‘p erur yaxshiroq.

Kishining o‘z o‘rni va haddini bilishi, o‘zгалar haqiga rioya etishi ham odobdan dalolatdir, deydi Navoiy:

Garchi adab sharti bag‘oyat kerak,
Har kishi tavrida rioyat kerak.

Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘rilgan pandnoma asardir. Jumladan, dostonida ota-onalarni o‘z bolalarini chin insonga xos bo‘lgan eng yaxshi fazilatlar egasi qilib tarbiyalashga da’vat etuvchu ushbu fikrlari bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi:

Topting chu ayol yaxshilik topshurgil,
O‘rgat adabu yaxshi qiliq yetkurgil.
Har necha adab bo‘lsa, qattiq yetkurgil,
Haylig‘a adab qilib, saboq yetkurgil.

“Hayrat ul-abror”dagi farzandning ota-ona oldidagi burchlari haqida buyuk shoir aytgan ibratli fikrlar biz-yoshlar uchun naqadar ahamiyatlidir. Dunyoda har birimiz uchun eng aziz va qadrli kishi zot ota-onamizdir. Mutafakkir bobomiz farzand ota-ona oldida doimo qarzdor ekanligini, u ota-onasining qarzini uzolmasligini aytadi. Shoir ota-onani ulug‘lash, e‘zozlash va hurmatini joyiga qo‘yish farzandning majburiyati, eng asosiy vazifasi ekanligini uqtiradi:



*Biri erur makrumati volidayn,
Balki muning qilmog`idur farzi ayn*

Mana bu misralarda otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jisingni sadqa qilsang arziydi, chunki ularning sen uchun qilgan xizmatlari nihoyatda beqiyosdir, deydi shoir:

*Boshni fido ayla, ato qoshig`a,
Jismni qil sadqa ano boshig`a.*

Alisher Navoiyning “Xamsa” asariga kirgan yana boshqa dostonlarida ham ilgari surilgan yuksak insonparvarlik g‘oyalari har bir kitobxon qalbiga chuqur ta'sir etadi, albatta.

“Hayrat ul-abror” dostonida ilgari surilgan yuksak insonparvarlik g‘oyalari yosh lar ma'naviyatiga ham chuqur ta'sir etadi, ularni barkamol shaxs etib voyaga yetkazishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. Yigirma jildlik. T.: “Fan”, 2000-y.
2. “Hayrat ul-abror” dostoninin g nasriy bayoni.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. Yigirma jildlik. 14-jild. T.: “Fan”, 1998. – B. 83.
3. “Xamsa” yangi avlod. Toshkent-2016.
4. www. Ziyonet.uz va boshqa internet manbalari.



ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Kuryazova Xurshida,

Xorazm viloyati Xonqa tumani
8-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Boltayeva Iqboloy, Xorazm viloyati
Qo‘shko‘pir tumani 24-maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko‘pgina fazilatlarini ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik g‘oyalari, serqirra ijod, obraz yaratish, Vatan mustaqilligi, qissa va romanlar, mafkuraviy kurash.

Abdulla Qahhor XX asr o‘zbek adabiyoti xazinasiga o‘zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari bilan munosib hissa qo‘shgan siymolardan biridir. Adibning mustaqillik g‘oyalari hamohang bo‘lgan asarlari bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

A. Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroflicha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga xos ko‘pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqlol yaratib bergan erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o‘rganish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma‘noda, A. Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o‘rinlidir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o‘tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta‘sirida yuz bergan voqealar favqulodda bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo‘lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan obrazlar bo‘lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko‘proq umumlashtirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo‘lib, davr voqeligi tasviriga bag‘ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo‘lib o‘tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarni bir eslab ko‘raylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirini batafsil tasvirlaydi, Murodxo‘ja domla, shahar maorif bo‘limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbosxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining o‘ziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxo‘ja domla xarakteri jonli va to‘laqonli qilib gavdalanadi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo‘lgan dramaturgiya sohasida ham iste‘dodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada ko‘targan mavzulari hanuzgacha dolzarb bo‘lib turibdi. Uning «Yangi yer», «Og‘riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komediyalari o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich bo‘ldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, ta‘sirchanligini yuqori nuqtalarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

Masalan, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obrazi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Komediya Dehqonboy, Hafiza va Qo‘ziyev kabi sofdil, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan o‘jar kishi obrazi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga o‘xshagan samimiy va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi.

«Og‘riq tishlar» komediyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yo‘liga to‘siq bo‘layotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi bo‘lasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bog‘liq. Komediya zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan Zargarov singari nopok illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni, adolatni targ‘ib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor bo‘lishini ko‘rsatishda



satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli ko‘rsatishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni astoydil qo‘msagan, adolat mavzusini o‘ziga bayroq deb bilgan betimsol so‘z san’atkori Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yutuqlari adibning yetuklikka ko‘tarila olganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”,-“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-son.



**JAHON ADABIYOTI. TURGENEVNING “OTALAR VA BOLALAR” ASARI
TAHLILI**

Namozova Dilfuza Isomiddinovna

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
22-maktabning Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
+99893 748 90 11

Kuchimova Gulmera Muxiddinovna

JDPU Akademik litseyi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
+99890 181 48 89

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Otalar va bolalar” asaridagi salbiy va ijobiy obrazlar, ularning taqdiri, asar syujeti va kompozitsiyasi, tugun va yechim haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: asar g'oyasi, asar nomi, mafkura, konflikt, obraz, syujet, komponent, nigilizm, sotsiologiya, “otalar”, “bolalar”.

Rus yozuvchilari o'zlarining adabiy asarlariga turli yo'llar bilan sarlavha qo'yishadi. Ba'zilari bosh qahramonning nomini, ba'zilari asarning bosh g'oyasini sarlavhaga ko'chiradi.

Turgenevning “Otalar va bolalar” romanining nomi asar g'oyasini ifodalaydi. Unda asarning asosiy konfliktini mavjud bo'lib, unda ikki komponent – oilaviy va mafkuraviy komponent yoritilgan. Yozuvchi roman qahramonlarini ikki guruhga ajratadi: “Otalar” o'tmish g'oyalari bilan yashaydigan keksa avlod vakillari va kelajakka intilayotgan “bolalar” – yoshlar. Bu ikki guruh qahramonlari bir-biriga qarama-qarshidir. Romandagi “otalar” aka-uka Kirsanovlar: Nikolay Petrovich va Pavel Petrovich. Yumshoq va xushmuomala Nekolay Petrovich qishloqda sokin oilaviy baxtdan baxramand bo'lib, xotirjam yashaydi. U she'riyatni yaxshi ko'radi va o'g'lining do'sti Bazarovning nazarida kulgili ko'rinadigan violonchel chaladi. Pavel Petrovich akasiga umuman o'xshamaydi. Bu sobiq sotsiologiya to'plarda porlagan harbiy xizmatchi, qishloqda akasi bilan o'tmishni eslab yashaydi. Qishloqda yashasa-da, did bilan kiyinadi. Yosh avlod “bolalar” romanda, birinchi navbatda, do'sti Arkadiy bilan qishloqqa kelgan Yevgeniy Bazarov tomonidan tasvirlangan. Bazarov – nigilist. U faqat foydali narsaga ishonadi, qolgan hamma narsani, jumladan, she'riyatni, san'atni, sevgini, e'tiqodni inkor etadi. “Rafael bir tiyinga ham arzimaydi”, - deydi Bazarov. U faqat so'zlarni shamolga tashlaydigan zamonaviy aristokratiyadan nafratlanadi.

Mafkuraviy qarama-qarshilik Pavel Petrovich va Bazarov o'rtasidagi tortishuvlarda aniq namoyon bo'ladi. O'sha paytda Rossiyada urfga aylangan nigilizm an'anaviy dunyoqarash bilan to'qnash keladi. Turgenevning zamonaviy tanqidi bu bahslarda liberallar (aka-uka Kirsanovlar) va inqilobiy demokratlar (Bazarov) o'rtasidagi to'qnashuvni ko'rdi. Garchi bu o'g'zaki bahslarda g'alaba Bazarovga tegishli bo'lsa-da, uning ustunligi bir necha bahslarga sabab bo'ladi. Pavel Petrovich ham odamlarning avlodlari tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlarga ishora qilib o'zining haqligini isbotlashga harakat qiladi. Bu ikki obraz ayrim xususiyatlari bilan bir-biriga o'xshaydi. Ikkalasi ham mag'rur, o'ziga ishongan, takabbur.

Oila dramasi g'oyalar to'qnashuvidan ko'ra chuqurroq va muhimroq bo'lib chiqdi. Bu ikki avlod – “Otalar” va “Bolalar” ning abadiy qarama-qarshiligidan iborat. Keksalar ham doim tajribali va ehtiyotkorroq. Ular yoshlik ideallari bilan yashaydi, ularni yosh avlodga singdirishga harakat qiladi. Shuning uchun Pavel Petrovich o'z printsiplarini qat'iyat bilan himoya qiladi. “Bolalar” – yoshlar esa har doim “otalar”ning inertsiyasini qoralab, yangi va ilg'or narsaga intilishadi. Yaxshi hamki, “otalar” va “bolalar” o'rtasidagi qarama-qarshilik vaqtinchalik. Turgenev esa ularni ajratmaydi, balki asar nomidagi “va” birlashmasi bilan ularni bog'laydi. Asar yakunida xasta Bazarovga ota-onasi g'amxo'rlik qilishadi. Arkadiy oila qurdi. Bazarov sevgi tuyg'usini boshdan kechirgan holda, o'zining bag'ritosh va ruhsiz inson ekanligiga amin bo'ldi. “Bolalar” muqarrar ravishda “otalarga” ergashishini, ota-onalar yo'lini takrorlashini kitobxon roman so'ngida tushunib yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D. I. Forvizin “O'sish”
2. L. N. Tolstoy “Urush va tinchlik”.
3. I. S. Turgenev “Otalar va bolalar”.
4. D. Quronov “Badiiy asar tahlili”.



ERKIN VOHIDOV IJODIYOTIDA O'ZBEK TILNING BETAKROR JOZIBASI

Abdusalomova Madinaxon Tohirjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika fakulteti, o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich 102-guruh
talabasi

Telefon nomeri :+99893047604

Annotatsiya :

Ushbu maqolada Erkin Vohidov she'riyati va uning o'ziga xosligi, tilning jozibasi, boyligi haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kamtarlik, do'st, inson, qo'llar, qasida, Vatan, komediya, doston, muhabbat

Zamonaviy o'zbek milliy adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri Erkin Vohidov ijodida g'azal, qasida, muxammas kabi janrlar shakllanib boradi. U mumtoz adabiyotning bu sohadagi tajribalarini boyitish, mukammallashtirishga intiladi. Erkin Vohidov badiiy mahorati o'sib, kamol topgan, chuqur falsafiy umumlashmalar darajasiga ko'tarilgan ijodkordir. U O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni edi. Zamonaviy o'zbek milliy adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri Erkin Vohidov 1936-yilning 28 - dekabr sanasida Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tug'ilgan. Otasi Cho'yanboy Vohidov urush so'ngida frontdan Toshkentga qaytib kelib, shu yerda vafot etgan. So'ng onasi Roziyaxon Vohidova (Sohiboyeva) ham vafot etadi. Bo'lg'usi shoir esa tog'asi Karimboy Sohboyev tarbiyasida bo'ladi.

Uning birinchi she'ri o'n to'rt yoshida, 7-sinfda o'qib yurgan kezlarida chop etilgan. U o'n olti yoshga kirganda «Manzara» nomli she'ri bosildi. Unda tabiat go'zalligi samimiy tasvir etilgan bo'lsa, ko'p o'tmay, u do'stlariga qarata:

Istaymanki, hurramluk bo'lsin,
Sho'x qahqaha bog'lasin qanot.
Kuy shalola yanglig' quyilsin,
Qo'shiq bo'lib tuyulsin hayot, -

deb, ijodning katta karvoniga o'zining yaxshi niyati, katta umidi, pokiza qalbi bilan kirib keldi. Shoirning «Tong nafasi» (1961), «Qo'shig'im sizga» (1962), «Aql va yurak» (1963), «Mening yulduzim» (1964) kabi to'plamlariga kirgan ko'pchilik she'rlarida uning badiiy tafakkurida ham, poetik uslubida ham o'sish, ulg'ayish sezila boshlaydi. Endi shoir oddiy hayotiy tasavvurlardan ancha chuqur fikrlash sari ko'tariladi. Ayniqsa, «Fursat - oltin», «Inson» kabi she'rlarida shoirning hayot haqidagi tasavvuri yana ham chuqurlashadi. U inson haqida madhiya o'qib: «Yerni go'zal qilgani sayin, Go'zal bo'lar o'zi ham inson», degan xulosaga keladi. Mehnatni, go'zallikni, ezgulikni ulug'laydi. Xuddi shu davrda shoir ijodida yana bir muhim intilish paydo bo'la boshlaydi. U endi mumtoz adabiyotimiz an'analariidan oziq izlab topadi. Uning «G'uncha», «Azganush», «Fuzuliy haykali yonida» kabi she'rlari bu boradagi dastlabki dadil izlanishlari edi. Binobarin, shoir ijodida janr va uslub rang-barangligi qatori mavzular doirasi ham kengayadi. «Chirchiq», «Do'stim», «Olimlarning rafiqalariga» kabi she'rlarida shu holat ko'zga yaqqol tashlanadi. Erkin Vohidov ijodida g'azal, qasida, muxammas kabi janrlar shakllanib boradi. U mumtoz adabiyotning bu sohadagi tajribalarini boyitish, mukammallashtirishga intiladi. Ayniqsa, «Yoshlik» (1969) devoniga kirgan she'rlar bu jihatdan e'tiborlidir. Shoir xuddi shu davrdan boshlab dunyo kezdi, dunyoni ko'rdi, dunyoni tanidi. Ana shu taassurotlari asosida «Tirik sayyoralar» (1978), «Sharqiy qirg'oq» (1981) kabi yangi she'riy to'plamlarini tashkil etgan she'rlarini yaratdi. Inson taqdiri, uning baxti va kelajagi shoir ijodining mavzuiga aylanadi. Uning «Kelajakka maktub» (1983), «Yaxshidir achchiq haqiqat» (1992) to'plamlariga kirgan she'rlarida buyuk, pokiza, haqgo'y va bedor insonni kamol toptirish g'oyasi yetakchilik qiladi. Xuddi shu o'rinda faylasuf shoirning kelajak haqidagi bashorati o'zining yorqin ifodasini topgan satrlarini chetlabo'tolmaymiz. Uning «Vatan istagi», «Devona haqgo'y», «Iztirob» kabi she'rlari bu jihatdan alohida ahamiyatli. Shoir «Vatan istagi» she'rida sobiq sho'ro mavjudligidayoq:



Bu vatandan bir Vatan qurmoqni istaydir ko'ngil,
O'zni ozod qush kabi ko'rmoqni istaydir ko'ngil, -
deya bo'lg'usi mustaqil Vatan - O'zbekistonni ko'rishni istadi.

Shoirning «Buyuk hayot tongi» (1960), «Orzu chashmasi» (1964), «Nido» (1964), «Palatkada yozilgan doston» (1966), «Quyosh maskani» (1972), «Ruhlar isyoni» (1980), «Ko'hinur» (1982) kabi liro-epik asarlari, qolaversa, «Oltin devor» va «Istambul fojiasi» kabi she'riy dramalari katta ijodiy mehnatining samaralaridir. Ana shunday samarali ijodi Erkin Vohidovga el-yurt e'zozini olib keldi. U tavalludining 60 yilligi munosabati bilan «Buyuk xizmatlari uchun» (1996) ordeni bilan taqdirlandi. Shoirning to'rt jildlik «Saylanma asarlar»i nashrdan chiqqan. Shoir lirikasida Vatan, O'zbekiston mavzulari boshqa ijodkorlarnikiga o'xshamagan tarzda bayon etilgan. "O'zbekim" qasidasi yozilgan paytda esa mustaqillik degan so'z haqida gap bo'lishi ham mumkin emas edi. Lekin shoir o'sha davridayoq, o'zbekimning kim ekanligini, O'zbekistonning qanday diyorligini barchaga namoyon eta oldi.

Menga Pushkin bir jahon-u
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksim osmon o'zbekim.

Qayga bormay boshida do'ppim,
G'oz yurarman, gerdayib,
Olam uzra dong'i ketgan,
O'zbekiston o'zbekim. (Erkin Vohidov "O'zbekim", 27-bet).

Shoir yuqoridagi misralari da buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy bilan qanchalik faxrlanmoqda, hatto o'sha paytlarda eskilik sarqitiga ham chiqarilgan milliy bosh kiyimimiz-do'ppimizni ham ulug'lab, ko'klarlariga ko'tarmoqda. O'zbekistonning janatmakonligi, yurti rivojiga hissa qo'shgan adiblar-u shoirlar, buyuk ajdodlarimizning hech biri shoir nazaridan chetda qolgan emas.

Do'st haqida qadimgi xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan ertaklar, maqol-u matallarda ham ko'p gapirilgan. Lekin shoirning "Do'st bilan obod uying" she'ri esa do'stlik haqidagi madhiyaga aylanib ketgan desam mubolag'a bo'lmaydi. Erkin Vohidovning talabalik paytidagi eng yaqin do'stlaridan biri Abdurahmon Nazarov (Olloh rahmatiga olgan bo'lsin) men istiqomat qilayotgan Namangan viloyati Norin tumanidan. Abdurahmon Nazarovning eng suyuki jiyani Salohiddin Yo'ldoshevdan eshitganlarimni qog'ozga tushirmoqchiman. U tog'asi va Erkin Vohidovning juda qalin do'st bo'lganligini, kunlarning birida kursdosh do'stlari yig'ilib bir badavlat o'rtog'ining uyiga boribdilar. Uning oilasidagilar kursdosh do'stlarni yaxshi kutib olmabdi. Shundan so'ng ular Noringa, Abdurahmon Nazarovning uyiga kelibdilar tunda. Abdurahmon Nazarov oddiygina hovlida onasi bilan yashar ekan. Uning onasi kursdosh do'stlarni ko'rib boshi ko'kka yetib, shunday mehmon qilibdiki, barcha do'stlari rosa xursand bo'libdilar. Shunda Erkin Vohidovning o'sha mashhur "Do'st bilan obod uying" she'ri bitilgan ekan. She'r misralariga e'tibor berib, do'st so'zining asl mohiyatiga tushunib yetamiz:

Do'st bilan obod uying,
Gar bo'lsa u vayrona ham,
Do'st qadam qo'ymas esa,
Vayronadir koshona ham. (Erkin Vohidov "Saylanma", 48-bet)

Shoir "Inson" qasidasi orqali insonga haqiqiy haykal qo'ydi:

Sobit o'z ma'nosida,
Sayyor fazo dunyo sida,
Keng jahon sahosida
Karvon o'zing, sarbon o'zing. (Erkin Vohidov "Saylanma", 78-bet)

Olloh tomonidan inson bo'lib yaratilganligimizning o'zi bir baxt. Har bir sohada, har bir ko'z ilg'amas narsalarda ham, jangda ham, fazoda ham, ezguliklar to'rida, hatto yovuzliklar ichida ham kim? Albatta, inson.

Erkin Vohidov ijodiyoti haqida so'z borganda uning "Kamtarlik haqida" she'rini eslamay ilojimiz yo'q. Xalqimizda "Kamtarga kamol" degan purhikmat maqol bor. Bu she'rni yosh-u qari qalbiga jo etgan va yod bo'lib ketgan. Bugungi kundagi ba'zi bir sal mansab cho'qqisiga minishi bilanoq o'zini tuta olmay qolgan kalondimog' insonlar uchun ham bu she'r ajoyib manba bo'la



oladi:

Kamtarin bo'l, hatto bir qadam,
O'tma g'urur ostonasidan,
Piyolani inson shuning-chun,
O'par doim peshonasidan. (Erkin Vohidov "Saylanma", 97-bet).

Shoir shoir emaski, u muhabbat haqida kuylamasa. Erkin Vohidovning xalqning qon-qoniga singib ketgan shunday misralari borki, uni yod olmagan oshiq, tinglamagan ma'shuqa bo'lmasa kerak. "Rashkim", "Barcha shodlik senga bo'lsin", "Kimni etmas bu ko'ngil shaydo", "Sevgi shunday navbahorki", "Senga baxtdan taxt tilayman" kabi she'rlari muhabbat haqida yozilgan she'rlarning gultojisidir.

Sevgi shunday navbahorki,
U tikandin gul qilur.
Toshga jon-u til bag'ishlab,
Zog'ni ham bulbul qilur. (Erkin Vohidov "Kuy avjida uzilmasin tor", 54-bet).

Sevgini bunday shoirona tarzda talqin etish har qanday ijodkorga ham xos emas. Bunday o'tli misralarini esa sof muhabbat dardiga chalingan haqiqiy oshiq yoza oladi. Demak, Erkin Vohidov - sof muhabbat sohibi.

Sevgi bormi, albatta, uning yonida rashk degani ham bo'ladi. Rashkni shoir shunday ta'riflab yozadiki, ma'shuqalar beixtiyor meni ham yorim shunday rashk qilsa edi deb yuboradi:

Seni yotlar tugul hatto-
Qilurman rashk o'zimdan ham,
Uzoqroq termulib qolsam,
Bo'lurman g'ash ko'zimdan ham. (Erkin Vohidov "Kuy avjida uzilmasin tor", 80-bet).

Yaqinda bir qo'shiq qulog'imga chalindi va qo'shilib ayta boshladim. Bu Erkin Vohidovning "Kimni etmas bu ko'ngil shaydo" she'riga kuylangan qo'shiq edi. Ijrochisi-Jasur Mavlonov. To'g'risi, quvondim. Shunday ma'noli qo'shiq o'zbek estradasida paydo bo'lganligiga.

Erkin Vohidov ijodiyoti, uning boy xaziinasi barcha adabiyot shinavandalaring qalb mulkiga aylanib ulgurgan. Yosh avlodni ma'naviy yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda shoirning o'lmas merosi biz ustozlar uchun juda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar :

1. Erkin Vohidov. O'zbekim. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2017.
2. Dilnavoz Yusupova. Adabiyot. Universal qo'llanma. "Akademnashr". Toshkent, 2014.
3. Boqijon To'xliyev, Bahodirov Karimov, Komila Usmonova. Adabiyot. 11-sinf. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2018.



O‘QUVCHILAR OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

**Bozorova Nargiza Sayidovna,
Sattorova Dildora Botirboyevna**

Navoiy viloyati Navoiy shahar
5-IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqidagi muammolar va ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchidan talab qilinadigan bilim va ko‘nimalar haqida fikrlar aks etgan.

Kalit so‘zlar: og‘zaki va yozma nutq, so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, lug‘atlardan foydalanish, notiqlik san‘ati, nutq mazmundorligi, soddaligi, aniqlik.....

Kishilardagi barcha yaxshi fazilatlar - tilning mahsuli. Ona tilini sevish, uni puxta o‘rganish, hosil qilingan malakalarni adabiy talaffuz va imlo qoidalariga muvofiq holda amalda to‘g‘ri qo‘llay bilish madaniylik belgisidir. Madaniy nutq esa orfoepiya, orfografiya hamda uslub talablariga muvofiq so‘zlash va yozishdir.

Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishdan asosiy maqsad ham o‘quvchilarda fikrini to‘g‘ri, aniq, ravshan va go‘zal ifodalay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. So‘zlarni to‘g‘ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda tuza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismidir.

Shuning uchun har bir so‘z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to‘g‘ri, o‘rinli ishlata olishni o‘rgatish, o‘z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg‘usini shakllantirish ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining asosiy vazifasi sanaladi. Biz-o‘qituvchilar yangi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitda bilimli va egallagan bilimini sharoitga mos ravishda qo‘llay oladigan tadbirkor kishilarni yetkazib bermog‘imiz zarur. Arab ijodkorlaridan biri “Ilmini amalda qo‘llay olmagan olim yomg‘irsiz bulut, u quyosh yuzini to‘shidan boshqa hech narsa bermaydi”, - deb ta’kidlagani bejizga emas.

Nutq fikr bayon qilish vositasi bo‘lib, og‘zaki va yozma shaklda ifodalanadi. Nutq madaniyati to‘g‘ri so‘zlash va yozish, fikrni qisqa va aniq, sodd va obrazli, uslub jihatdan ravon ifodalash demakdir. Tilning lug‘at tarkibi va grammatik qurilishi haqida yetarli bilimga ega bo‘lmay turib, yozma nutqni o‘shirish mumkin emas. Inson nutqining rivojlanishi, mazmundorligi, nutqning nechog‘li mantiqiyli, umuman, fikrlash qobiliyati uning badiiy adabiyotga munosabati bilan belgilanadi. Haqli savolga javob izlaymiz. Nutq jarayonida nimalarga e‘tibor berishimiz lozim?



Ona tili va adabiyot fanlari kesimida biz o‘qituvchilar duch keladigan muammolarga to‘xtalib, ularning yechimlariga to‘xtalib o‘tamiz.



Og‘zaki va yozma nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri qurish va so‘zlarni o‘rinli qo‘llash uchun nazariy bilim bilan birga uzluksiz mashq olib borish muhim o‘rin tutadi. Chunki uzluksiz mashq qilib borish natijasidagina nutq sohasida muhim ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish mumkin. Grammatik qoidalarning yetarli o‘zlashtirilmasligi, yozma nutqda ifodalash malakasining yetishmasligi yozma ishlarda xatolarga yo‘l qo‘yilishining asosiy sababidir. Shuning uchun nutqni o‘stirish bevosita tilning grammatik qurilishini va lug‘at tarkibini mukammal o‘zlashtirish bilan bog‘liq. Badiiy asarlarni muntazam o‘qib borish, ulardan zarur joylarini ko‘chirib olish, parchalar yodlash, matn yuzasidan turli yozma ishlar olib borish yozma nutqni o‘stirishga yordam beradi. Shuningdek, ona tili o‘qituvchisi yozma ishlarda mazmunga, mavzudan chetga chiqmaslikka, faqat imlo va tinish belgilarigagina emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo‘lishi, materialning to‘g‘ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to‘g‘ri bayon qilinishiga ham e‘tibor qaratishi lozim. Ya‘ni, mashg‘ulotlarda shunday holatni vujudga keltirish lozimki, o‘quvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o‘z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi. Demak, og‘zaki va yozma nutqdagi muammolarni bartaraf etish uchun biz ,avvalo, quyidagilarga e‘tibor qaratishimiz kerak:

1. Nutqning nutq sharoitiga mosligi
2. Nutqning mazmundorligi
3. Nutqning to‘g‘ri, aniq va izchil bo‘lishi
4. Nutqning boy va rang-barang bo‘lishi
6. Nutqning soddaligi va softligi

O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish, lug‘atlardan foydalanish malakasini shakllantirish, gap tuzish mahoratini kengaytirish, ish qog‘ozlaridan o‘rinli qo‘llashga o‘rgatuvchi innovatsion usullardan darslar jarayonida doimiy foydalanish maqsad sari eltuvchi qadamlardir.

Inson nutqini musiqa asarlari notasiga o‘xshatish mumkin. Nota musiqa asarini anglash uchun qulaylik tug‘dirda, nutq bu hayot mohiyatini yaxshi tushunishni ta‘minlaydi. Og‘zaki va yozma nutqni shakllantirishdek murakkab vazifa biz ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifani chin dildan ado etib, yangi Renessans bunyodkorlarini yaratishda o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Notiqlik san'ati" Toshkent- 2017
2. Ochilov M. "Yangi pedagogik texnologiyalar" – Qarshi. Nasaf. 2018
3. Ziyonet.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000